



BADIIY ASARLARNING FALSAFIY-PSIXOLOGIK TAHLILI VOSITASIDA O'QUVCHILARDA MOTIVATSIYANI SHAKLLANTIRISH METODLARI

Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich

Chirchiq pedagogika universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14778745>

Annotatsiya. Badiiy asarlarning falsafiy-psixologik tahlili vositasida o'quvchilarda o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirishning metodik jihatlar va motivatsiyani qanday rivojlantirish yo'llari ko'rsatilgan. Adabiyot darslarida o'quv-biluv motivatsiyasining shakllantirish nazariyasi va metodik usullari tavsiyasi berilgan.

Kalit so'zlari. Falsafiy-psixologik tahlil, motivatsiya, ehtiyoj, o'quv-biluv, ta'lim olish.

Аннотация. Средствами философско-психологического анализа художественных произведений показаны методические аспекты формирования учебно-познавательной мотивации у учащихся и способы развития мотивации. Дана рекомендация по теории и методическим методам формирования учебно-познавательной мотивации на уроках литературы.

Ключевые слова. Философско-психологический анализ, мотивация, потребность, обучение-познание, получение образования.

Annotation. Philosophical and psychological analysis is a methodological analysis of a person's motivation, aimed at shaping his thinking and motivation. At the same time, as with other methods, this method uses motivation techniques and motivation theory.

Keywords. Philosophical and psychological analysis, motivation, need, training, educational work.

Falsafiy-psixologik tahlil jarayonida o'qituvchi juda ko'p materialni o'rgatsa, o'quvchilar unga ergashishi va mavzuni tushunish ehtimoli juda past bo'ladi. Agar jaaryonda o'quvchilarga dam olishga ruxsat berilsa, bu yordam beradi, chunki tanaffus qilmasdan hamma narsani o'rganish juda qiyin. Kichik tanaffuslar yaratib, asardagi yaxshi tushunmagan jihatlariga e'tibor berish orqali o'quvchilar o'z-o'zini namoyon qilishga intilishadi.

Quyidagilar adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilar bilan mustahkam aloqalar o'rnatishga, ularning o'quv-biluv motivatsiyasini oshirishga yordam beradi:

“Vaqt chizig'i” texnologiyasi. Unga ko'ra o'qituvchi interaktiv doskaga chiziq chizadi, o'quvchilarga asarni o'rganish bosqichlari, nazorat shakllari, mas'uliyat talab qiladigan muhim topshiriqlar haqida gapiradi, birgalikda darslarni rejalashtiradi. O'quvchilarga qiziqishlari asosida muayyan vazifalarni yuklaydi va ularni darsga mehmon sifatida taklif etadi. Masalan, bu 5-sinfda “Ertaklar olamida” bo'limi yuzasidan quyidagicha amalga oshiriladi: “Mehmon ma'ruzachi” o'quvchiga: “Bir daqiqa ichida suhbatdoshingizni “Botir tikuvchi” ertagini o'rganishning muhimligiga ishontiring”.

“Muallif” o'quvchiga: “Agar siz adabiyot darsligi muallifi bo'lsangiz, o'quvchilarga “Oygul bilan Baxtiyor” ertak-dostonini o'rganish zarurligini qanday tushuntirgan bo'lardingiz

“Rejissyor” o'quvchiga: “Uch og'a-ini botirlar” ertagi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni hayotda qo'llashning 5 ta usulini ayting (mavzu doskaga yoziladi).

“Tadqiqotchi” o'quvchiga: “Tanlamoqchi bo'lgan kasbingizdan kelib chiqib, “Botir tikuvchi” ertagini o'rganishning nima uchun kerakligini tushuntiring”.

Tahlildan oldin o'quvchilar o'zlariga berilgan varaqqa ism-familiyasini kiritishi, o'quv jarayoni uchun mas'uliyatni zimmasiga olishlariga imkon berilishi tushuntiriladi. Asarni o'rganish natijalarini baholash mezonlari haqida oldindan ma'lumot berish va o'quvchilar nimalarni bajarishini muhokama qilinadi. O'rganilayotgan asar va o'quvchilarning qiziqishlari o'rtasida aloqa o'rnatishda “Asar haqida nimalarni bilasiz? Bu haqda so'z ayting” ayting kabi o'qishdan oldingi savollar qo'yiladi. O'quvchilarning doskada sinfdoshlariga topshiriq berishlariga imkoniyat yaratish ham muhimdir: sharhlovchilar javob beradi, tahlil qiladi, baholaydi va savollar beradi.

“Ehtiyojlar ustuni” texnologiyasi. O'quvchining asosiy ehtiyojlarini qondirishda o'zini o'zi baholash zarurati mavjud. U ichki motivatsiyani shakllantirish uchun sharoit yaratishda muhimdir. Shunga ko'ra,



o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirish uchun o'quvchilarning adabiy ta'lim faoliyatida qondirilishi kerak bo'lgan ehtiyojlar: mutolaa jarayonida mustaqillik hissi, fikrlash erkinligi hissi, muvaffaqiyat (kompetentlik) hissigacha e'tibor qaratish zarur.

Mustaqil izlanish hissi o'quvchida: "Biz asarni o'rgandik, tushundik, yakunini o'zimiz o'ylab topdik!" fikriga asoslanishni taqozo etadi. O'quv-biluv motivatsiyasini rivojlantirishda muhim jihat sub'ektning o'zini o'zi his qilishidir. Bunga adabiy materialning muammoli taqdimoti, jamoaviy aqliy hujum va tadqiqot faoliyati yordam beradi. Ular o'quvchiga bilimlarni o'zlashtirish jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatini yaratadi, passiv iste'molchisi (qabul qiluvchisi) bo'lmaslikka o'rgatadi. Asosiy vazifa o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini rag'batlantirish, tayyor bilimlarni uzatishdan qochish va yangi ta'limiy mahsulot yaratishga odatlantirish iborat. O'quvchilar oldiga muammoli savollarni "Agar qahramon bu vaziyatda (boshqacha yo'l) tutganida nima bo'lardi? Misol keltiring", "Qahramonning kuchli va zaif tomonlari nimada?", "Bu nimaga o'xshaydi?", "Biz bu haqda nima bilamiz?", "(detal nomi) qanday maqsadda ishlatilishi mumkin?", Qanday qilib (qiyoslanayotgan obraz yoki voqealar) o'xshash?", "Qaysi (voqea, obraz yoki detal) eng yaxshisi va nima uchun?" tarzida qo'yish ularning mantiqiy fikrlash darajasini oshiradi.

O'quv-biluv motivatsiyasi asosiy jihati o'quv tahlilining faol sub'ekti bo'lish hissidir. Bunga materialning muammoli taqdimoti, aqliy hujum va o'quvchilarning tadqiqot faoliyati yordam beradi. Ular o'quvchiga bilimning passiv iste'molchisi bo'lishdan ko'ra, o'zlashtirish jarayonida faol ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratadi.

Fikrlash erkinligi hissi: "Biz (qanday) fikrlashimiz mumkin". O'qituvchi nutqida "Sizda variantlar mavjud", "Buni to'g'ri payqadingiz" degan so'zlar bo'lsa, adabiyot darslariga qiziqish shunchalik ortadi.

Muvaffaqiyat hissi: "Men qila olaman", "Tushunaman", "Uddasidan chiqaman!". O'quv-biluv motivatsiyasi (o'rganish istagi) o'quvchi qobiliyati, faoliyati va jarayon natijasini ko'zda tutadi. Bunda fikr-mulohazalar aniq va mazmunli, berilgan ish (javob) bilan bevosita bog'liq bo'lishi kerak. O'quvchi ob'ekt va uning xususiyatlarini nima uchun ijobiy yoki salbiy baholganini, o'qituvchi nimadan mamnunligini tushunishi kerak: "Siz bu she'rni juda zo'r tahlil qildingiz!" kabi.

Tahlil jarayonida aniq natijalarga erishish, qat'iyat va tirishqoqlik uchun fikr-mulohazalar beriladi. O'quvchilar fikr-mulohazalari tengdoshlariniki bilan taqqoslanadi, individual rivojlanish dinamikasi baholanadi. O'quvchi muvaffaqiyatini qobiliyati va sa'y-harakatlari bilan izohlash uning yana muvaffaqiyatga erisha olishiga ishonch hissini uyg'otadi. Masalan, "Ajoyib javob bo'ldi!", "Buni qanday uddalashingizni ko'rsating!". Boshqa tomondan, muvaffaqiyatsizliklar tirishqoqlik yoki vaqtinchalik omillar (masalan, yomon kayfiyat), o'quvchining o'zini o'zi qadrlashi va kelajakdagi qat'iyatlilikini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirishi mumkin. Xususan, "Siz bu obraz (lavha)ni tahlil qilish uchun yetarlicha tayyorgarlik ko'rmadingiz", "Afsuski, siz vazifani bajarishga beparvolik qildingiz" kabi.

Metodist olimi M.Mirqosimova o'rinli ta'kidlaganidek, "o'quvchilar fikr yuritganda badiiy obrazlarning hayotdagi o'rnini anglab oladilar, har qanday badiiy timsol hayot haqida, hayotiy haqiqatlar haqida o'ylatib, inson dunyosi turmushi bilan chambarchas bog'lanib ketishini, chunki adib qalamga olgan hodisalar, qahramonlar hayotdan olinganiga ishonch hosil qiladilar".

O'quv-biluv motivatsiyasi asar syujetidagi muammolar tabiati, personajlar taqdiri, adiblar ijodining o'ziga xosligini o'rganish qatori tarbiyaviy ish shakllari va baholashga chambarchas bog'liq. Masalan, motivatsiya o'quvchilar loyiha faoliyatining bir qismi sifatida, maqsad belgilangan paytdan boshlab uning xususiyatlarini hisobga olishdan boshlanadi. Kelgusidagi tadqiqotlarni loyihalash va ishlashning barcha bosqichlarida o'zini namoyon qiladi. Aynan o'quvchi uchun adabiy materiallar mavzusini aniqlashda; asar mazmuni, obrazlar talqini asosida loyiha turini belgilashda; loyiha yetakchi muammosi tavsifida, taqdim etishning afzal shakllarini tanlashda muhim sanaladi.

Didaktik o'yin texnologiyasi. O'quvchilarda motivlar hosil qilishda didaktik o'yinlarning o'zni katta. "Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega". O'yinsiz tom ma'nodagi aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin ham emas. O'yin o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg'otadigon stimuldur. O'yin orqali bolalar dunyoni o'rganish va o'zgartirishga harakat qiladi, borliqni aks ettirish qobiliyatini namoyon qiladi.



Masalan, 5-sinfda “Hikmat durdonalari” bo‘limini o‘tishda maqol, topishmoq yoki tez aytishlarni zerikarli va oddiy emas, balki quvnoq daqiqalarga boy holda qiziqarli usullarda tashkil etish mumkin. Bu o‘rinda asarlar tarkibidagi tushirib qoldirilgan so‘zlar yoki oxiridagi qofiyalarni shunday tiklash keraki, yetishmayotgan so‘z o‘rganilayotgan asar mazmunini to‘ldirsin. Masalan, “Otasi _____ xo‘ja, Onasi _____ xotin, Bolasi _____” (18-b.) topishmog‘idagi nuqtalar o‘rniga predmetga xos sifatlarni qo‘yish; “Qoqilsang, ...dan o‘pkalama” (15-b.) maqolidagi nuqtalar o‘rniga ot so‘z turkumiga xos so‘zni qo‘yish topshirig‘ini bajarishda o‘quvchilar faol harakat qiladi. Ayniqsa, o‘qishni istamagan o‘quvchilarning yana o‘ynash istagini bildirishlari dars muvaffaqiyatidan darak beradi.

Teatrlashtirilgan dars – sahna ko‘rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo‘yicha chuqur, aniq ma‘lumotlar berish. Adabiyot darslarida ijodiy topshiriqlar uyga beriladi, o‘quvchilar maxsus dekoratsiyalar va kiyimlar olib kelib dars davomida mavzu bo‘yicha sahna ko‘rinishlarini o‘zlari tashkillashtiradi. Masalan, 7-sinfda A. Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidan berilgan parchani teatrlashtirilgan tarzda o‘rganish mumkin. Asardan tanlangan muayyan parchani sahnalashtirish jarayonida qahramonlar nutqi ustida ishlanadi, muammoli vaziyatlar muhokama qilinadi. Personajlar libosi, voqealar bo‘lib o‘tgan joylar bo‘yicha dekoratsiyalar ishlanadi. Bunda har bir o‘quvchining qobiliyatiga tayanilib, vazifalar taqsimlanadi. O‘quvchi imkoniyatlari darajasida topshiriqlar qo‘yish har bolada muvaffaqiyatga intilish hissini kuchaytiradi.

“Sud” darsi – o‘quvchilar bilan dars mavzusiga mos “sud” jarayonini tashkil etish. Bunda “Oqlovchi”, “Qoralovchi”, “Guvoh” yoki ekspert rollarini ijro etish orqali yangi mavzuni tushuntirish imkoni ortadi. Xususan, 5-sinf Adabiyot darsligida berilgan Nodar Dumbadzening “Hellados” hikoyasi asosida “Sud” darsini o‘tkazish mumkin. Bunda bosh qahramon Yangulining fojeali o‘limi sud jarayonida ko‘rib chiqiladi. Aybdorni qidirish asnosida falsafiy-psixologik tahlilga tayaniladi, shu zaylda asar psixologiyasi ochiladi. Fikrlar xilma-xilligiga erishiladi, o‘quvchida muayyan kasblarga qiziqish ortadi. Asarda Yangulining portreti quyidagi chizilgan:

“Yanguli – suxumilik grek Xrista Aleksandridining o‘g‘li. Cho‘pday ozg‘in, yelkalari turtib chiqqan, qirraburun, ko‘zlari charosdek qop-qora, qo‘llari uzunligidan tizzasiga tushib turadigan o‘n to‘rt yoshli bu bola yon-atrofdagi tengqurlari uchun naqd Azroilning o‘zi edi. “Sud” jarayonida tashqi portreti orqali u qilgan xatti-harakatlarga baho beriladi.

Yanguli obrazidagi chizgilarga falsafiy jihatdan yondashilsa, birgina “Azroilning o‘zi edi” iborasi qo‘llanishi hech narsadan qaytmaydigan, qahri qattiq, janjalkash bolani tasavvur qilishga olib keladi. Psixologik jihatdan esa, mazkur ta‘rifdan beixtiyor asarda katta janjal bo‘lishi, uning kimgadir shikast yetkazishi mumkinligi haqida fikr uyg‘onadi. Asar yakunigacha o‘quvchida bola xatti-harakatlari uchun hayajonlanish, taqdiri uchun achinish kabi ruhiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Hikoyadagi har bir so‘z, voqealar ketma-ketligini falsafiy-psixologik mushohada etib o‘qishni o‘rgatish natijasida o‘quvchida o‘quv-biluv motivatsiyasi shakllanadi. Didaktik o‘yinda o‘quvchi qoidalarga rioya qilishga o‘rganadi, chunki qoidalarga rioya qilish o‘yin muvaffaqiyatini ta‘minlaydi. O‘yinda qatnashish jarayonida ijodiy-xulqiy sifatlar, tashkilotchilik qobiliyati shakllanadi. O‘qituvchi o‘quvchilarning yaxshi natijalarga erishish istagini kuchaytiradi va yutuq motivatsiyasini rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Har bir ijrodan kelib chiqib asar mazmun-mohiyati o‘zlashtiriladi.

Umuman olganda, zamonaviy ta‘lim sharoitida motivatsiya bu pedagog tomonidan har bir darsga kreativ yondashuv asosida yangilik bilan kirish, axborot almashinuvini ta‘minlash, o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro tanqidiy fikrlash va bahs-munozarali muhitni yaratish orqali o‘quvchini jalb qilish demakdir. Binobarin, adabiyot o‘qituvchisining kasbiy faoliyatga innovatsion yondasha olishi ko‘zlangan maqsadga erishishni kafolatlashi qatori adabiy ta‘lim sifat-samaradorligini oshirishga, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini, kreativlikni, izlanuvchanlikni shakllantiribgina qolmasdan, balki o‘quv-biluv motivatsiyasini ham rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar



1. Ahmedov S. va b. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2020. 320 b.
2. Mirqosimova M. M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish. Ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 1995. – 253 b
3. Yo'ldoshev J. G'., Usmonov S. A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2008. – 306 b.